


**TASDIQLAYMAN :**

**Buxoro MTU filiali boshlig'i v.b:**

 **S.S.Asrorov**

**09.06.2026 yil.**

**Buxoro mintaqaviy temir yo'l uzeli filiali boshlig'i v.b S.S.Asrorov  
raisligida bo`lib o'tgan yig'ilish**

**BAYONI: 56**

**Qatnashdilar:** Buxoro mintaqaviy temir yo'l uzeli filiali boshlig'i birinchi o'rinbosari A.Y.Ergashev, uzal xodimlar va ijtimoiy masalalar bo'limi boshlig'i o'rinbosari N.R.Mardonov, iqtisodiy tahlil va prognozlash bo'limi boshlig'i A.Sh.Soliyev, marketing va xaridlar bo'limi boshlig'i D.Nabiyev, kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi M.J.Hakimov, bosh huquqshunos J.A.Sattorov va tegishli bo'lim boshliqlari

**Taklif etildilar:** Barcha korxonah rahbarlari, bosh hisobchilar, xodimlar bo'limi boshliqlari, xaridlar bo'yicha ma'sullar

**KUN TARTIBI:**

**“Temiryo‘linfratuzilma” AJ “Buxoro mintaqaviy temir yo‘l uzeli” filiali va uning tezkor bo‘ysunuvidagi filiallarida 2025 yil yakunlari bo‘yicha korrupsiyaga qarshi talab va tartib-taomillariga rioya etilishi ustidan o‘tkazilgan monitoring muhokamasi**

Buxoro mintaqaviy temir yo'l uzeli" filiali boshlig'i S.S.Asrorov so'zga chiqdi: "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisining 2026 yil 27 martdagi "Jamiyatda korrupsiyaga qarshi talab va tartib-taomillariga rioya etilishi ustidan monitoring qilish reja jadvalini tasdiqlash to'g'risida"gi 172-N-sonli buyrug'i hamda "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisi o'rinbosarining 2026 yil 30 apreldagi 249-NZ buyrug'iga muvofiq "O'zbekiston temir yo'llari" AJ va uning tarkibiy bo'linmalarining Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi mas'ul xodimlari ishtirokida 2026 yil 5-15-may kunlari "Temiryo'linfratuzilma" AJ "Buxoro mintaqaviy temir yo'l uzeli" filiali va uning tezkor bo'ysunuvidagi filiallarida monitoring ishlari olib borilgan. Monitoring ishlari har bir korxonah rahbarlari xabardorligida, korxonahlar mas'ul xodimlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan hamda o'rganishlar davomida quyidagilar aniqlangan:

- 1.2.2.1 indikator jadvali (hisobot davrida ishga qabul qilingan xodimlar to'g'risida ma'lumot) Samarqand temir yo'l masofasi filiali, Uchquduq temir yo'l masofasi filiali, Qorlitog' temir yo'l masofasi filiali, Tinchlik lokomotiv deposi filiali, Buxoro lokomotiv deposi filiali, Navoiy signallashtirish va aloqa masofasi filiali hamda Buxoro signallashtirish va aloqa masofasi filiali;

- 1.2.2.2-indikator jadvali (hisobot davrida ishga qabul qilingan, rotasiya qilingan rahbar kadrlar to'g'risida ma'lumot) Navoiy signallashtirish va aloqa masofasi filiali, "Buxoro-1" bekati yo'l xizmati ustaxonasi filiali, 17-son yo'l mashina stansiyasi filiali, Uchquduq temir yo'l masofasi filiali, Buxoro lokomotiv deposi filiali, Navoiy signallashtirish va aloqa masofasi filiali hamda Buxoro elektr ta'minoti masofasi filiali;
- 1.2.2.3-indikator (hisobot davrida korrupsiyaga qarshi shartlar bilan mehnat shartnomasida tanishganligini imzosi bilan tasdiqlagan xodimlar to'g'risida ma'lumot) Buxoro elektr ta'minoti masofasi filiali, Uchquduq temir yo'l masofasi filiali, 17-son yo'l mashina stansiyasi filiali, Samarqand temir yo'l masofasi filiali, Qorlitog' temir yo'l masofasi filiali, Tinchlik lokomotiv deposi filiali, Buxoro lokomotiv deposi filiali, Samarqand signallashtirish va aloqa masofasi filiali, Buxoro signallashtirish va aloqa masofasi filiali;
- 1.2.3.1-indikator (manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklarasiyani to'ldirgan xodimlar) Uchquduq temir yo'l masofasi filiali, PDM-Buxoro, PCH-Samarqand, Qorovulbozor stansiyasi, PCH-Buxoro, Ziyovuddin temir yo'l masofasi filiali, Qorlitog' temir yo'l masofasi filiali, Tinchlik lokomotiv deposi filiali, Buxoro lokomotiv deposi filiali, SHCH-Samarqand, SHCH-Navoiy, ECH-Buxoro, PMS-17, SHCH-Buxoro;
- 1.2.3.2-indikator (hisobot davrida ishga qabul qilish uchun hujjat topshirgan nomzodlar) PDM-Buxoro" filiali, PMS-17, Samarqand temir yo'l masofasi filialida, Uchquduq temir yo'l masofasi filiali, Buxoro temir yo'l masofasi filiali, Ziyovuddin temir yo'l masofasi filiali, Qorlitog' temir yo'l masofasi, Tinchlik lokomotiv deposi filiali, Buxoro lokomotiv deposi filiali, Samarqand signallashtirish va aloqa masofasi filiali, Buxoro signallashtirish va aloqa masofasi filiali, Samarqand elektr ta'minoti masofasi filiali;
- 1.2.3.3 indikator jadvali (manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reestri) Uchquduq temir yo'l masofasi filiali, Qorlitog' temir yo'l masofasi filiali, Samarqand signallashtirish va aloqa masofasi filiali, Navoiy signallashtirish va aloqa masofasi filiali hamda Buxoro signallashtirish va aloqa masofasi filiali korxonalarida to'liq to'ldirilmagan.

Bundan tashqari, monitoring davomida Muxamedov Mustafu Sodikovich PMS-17 rahbari hamda uning turmush o'rtog'i Muxamedova Nigora Valiyevna mazkur tashkilot hisobchisi lavozimida faoliyat yuritishlari aniqlandi. Lavozim yo'riqnomasiga muvofiq hisobchi bosh hisobchiga va korxon boshlig'iga bo'ysinishi belgilangan bo'lib, bu holatda ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi xavfi mavjud. Shunga ko'ra, 2026 yil 3 fevraldagi 18-sonli buyruqqa asosan N.V.Muxamedovaning arizasiga ko'ra boshqa vazifaga o'tkazilganligi to'g'risida hujjat taqdim etilgan hamda mazkur holat 2026 yil 16 fevraldagi chora-tadbirlar hisobotida ham aks ettirilgan. Biroq monitoring jarayonida ushbu buyruq amalda ijro etilmagani va N.V.Muxamedova hozirgi vaqtda ham hisobchi lavozimida faoliyat yuritayotganligi ma'lum bo'ldi.

"Buxoro MTU" filiali va uning tezkor bo'ysunuvidagi ayrim filiallarida 1.2.3.4-indikator (hisobot davrida tuzilgan xo'jalik shartnomalari) va kontragentlarni tekshirish reestrini yuritilishi va bajarilishi bo'yicha:

- Tinchlik lokomotiv deposi filialida hisobot davrida tuzilgan xo'jalik (xarid) shartnomalari ma'lumotlari ilovaga muvofiq emas, masalan kontragentlarning STIR raqami kiritilmagan. Shuningdek tuzilgan shartnomalarning lot raqami va shartnoma

raqami talab etilgan ustunda ularning bittasigina ko'rsatilgan, Tuzilgan xarid shartnomalari bo'yicha kontragentlarni tekshirish reestri belgilangan talab darajasidan ortiqcha to'ldirilgan. Xususan, elektron do'kon hamda boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion shaklida amalga oshirilgan xaridlar ham reestruga kiritilgan. Tinchlik lokomotiv deposi filiali tomonidan tuzilgan xarid shartnomalari tanlanma usul orqali o'rganilganda buyurtmachi tomonidan maxsus axborot portaliga texnik topshiriq va loyiha-smeta hujjatlari yuklanmaganligi hamda kapital ta'mirni bajarish uchun zarur texnika mavjudligi to'g'risidagi mezonga ko'ra tanlov qatnashchisi "BEXRUZ-AZIZBEK-QURUVCHI KELAJAGI" MCHJ tomonidan texnika mavjudligi to'g'risida tizimga ma'lumot yuklangan bo'lishiga qaramay tegishli ball berilmagani hamda g'olib "DIZAYN LOKOMOTIV SERVIS" MCHJ va zahiradagi g'olib "PLATINA IRON GROUP" MCHJ lar ma'lumotlarni maxsus axborot portaliga bitta IP manzildan (84.54.73.38) foydalangan holda yuklaganligi, buyurtmachi tomonidan maxsus axborot portaliga texnik topshiriq va loyiha-smeta hujjatlari yuklanmaganligi hamda g'olib "DIZAYN LOKOMOTIV SERVIS" MCHJ va zahiradagi g'olib "ULTRA STROY" MCHJ lar ma'lumotlarni maxsus axborot portaliga bitta IP manzildan (84.54.73.38) foydalangan holda yuklaganligi, buyurtmachi tomonidan maxsus axborot portaliga texnik topshiriq va loyiha-smeta hujjatlari yuklanmaganligi hamda g'olib "DIZAYN LOKOMOTIV SERVIS" MCHJ va zahiradagi g'olib "ULTRA STROY" MCHJ lar ma'lumotlarni maxsus axborot portaliga bitta IP manzildan (84.54.73.38) foydalangan holda yuklaganligi, Bundan tashqari, Tinchlik lokomotiv deposi filiali tomonidan 2026 yil 30 apreldagi №ML10008581 sonli shartnomaga asosan YATT Baxtiyarova Maftuna Baxtiyor qizidan umumiy qiymati 25 890 000 so'mlik 100 dona o'lchami 1500\*3000mm bo'lgan listli azbest(krengalet) xarid qilingan, biroq ushbu tovar Tinchlik lokomotiv deposi omboriga borib o'rganilganda 875\*512 o'lchamli listli azbest borligi ma'lum bo'ldi. №4680584.1.1-sonli shartnoma asosida "BUXORO IMKONIYAT PLYUS" MChJdan 2 dona ankerli kronshteyn xarid qilingan. Ushbu shartnoma bo'yicha maxsus axborot portali ma'lumotlari asosida o'rganilganida auksionda ishtirok etgan g'olib "BUXORO IMKONIYAT PLYUS" MCHJ hamda ishtirokchi "NURAFSHON FAMILY" MChJlarning ta'sischisi va direktori ayni bir shaxs ekanligi ma'lum bo'ldi.

- Buxoro signallashtirish va aloqa masofasi filialida hisobot davrida tuzilgan xo'jalik (xarid) shartnomalari ma'lumotlari ilovaga muvofiq emas, masalan kontragentlarning STIR raqami kiritilmagan. Shuningdek tuzilgan shartnomalarning lot raqami va shartnoma raqami talab etilgan ustunda ularning bittasigina ko'rsatilgan, 2025 yil yakunlari bo'yicha amalga oshirilgan xaridlar bo'yicha mas'ul xodimlar tomonidan kontragentlarni tekshirish hisoboti (kontragentlarni o'rganish xulosalari) rasmiylashtirilmagan hamda xarid shartnomalari kontragentlar o'rganilgani to'g'risida asoslovchi hujjatlar yig'ilmagan. Buxoro signallashtirish va aloqa masofasi filiali tomonidan tuzilgan xarid shartnomalari tanlanma usul orqali o'rganilganda №5315022.1.1, №5304750.1.1 hamda №5298972.1.1-sonli shartnomalar "PRESTIJ GRAND PLYUS" MCHJ bilan tuzilgan. Mazkur shartnomalar maxsus axborot portali ma'lumotlari asosida o'rganilganida, auksionda ishtirok etgan g'olib "PRESTIJ GRAND PLYUS" MCHJ hamda ishtirokchi "NURAFSHON FAMILY" MChJlarning ta'sischisi va direktori ayni bir shaxs ekanligi, №4381511.1.1-sonli shartnoma bo'yicha ham aniqlanib, unda g'olib "BUXORO

IMKONIYAT PLYUS" MCHJ hamda ishtirokchi "PRESTIJ GRAND PLYUS" MChJlarning ta'sischisi va direktori ayni bir shaxs ekanligi ma'lum bo'ldi.

- Buxoro elektr ta'minoti masofasi filiali hisobot davrida tuzilgan xo'jalik (xarid) shartnomalari ma'lumotlari ilovaga muvofiq emas, masalan kontragentlarning STIR raqami kiritilmagan. Shuningdek ushbu jadvalda 33 ta xarid shartnomasi tuzilganligi ko'rsatilgan hamda jadval tasdiqlangan aslida 2025 yil davomida tuzilgan xarid shartnomalari 285 ta ekanligi, 2025 yil yakunlari bo'yicha amalga oshirilgan xaridlar bo'yicha mas'ul xodimlar tomonidan kontragentlarni tekshirish hisoboti (kontragentlarni o'rganish xulosalari) rasmiylashtirilmagan hamda xarid shartnomalari kontragentlar o'rganilgani to'g'risida asoslovchi hujjatlar yig'ilmagan. Buxoro elektr ta'minoti masofasi filiali tomonidan tuzilgan xarid shartnomalari tanlanma usul orqali o'rganilganda №4494309.1.1 sonli shartnomaga asosan "Buxoro elektr ta'minoti masofasi" filiali va "ORZU HAVAS SERVIS" MCHJ o'rtasida umumiy qiymati 10 450 000 so'mlik 1 komplekt personal kompyuter xarid qilingan bo'lib, mas'ul xodimlar tomonidan ushbu personal kompyuter joyiga chiqib o'rganilganida №4494309.1.1 shartnoma texnik parametrlarida ko'rsatilgan personal kompyuter mavjudligi aniqlanmagan, №4632130.1.1 sonli shartnomaga asosan "Buxoro elektr ta'minoti masofasi" filiali va "NAVBAHOR AKBARSHOX" MCHJ o'rtasida umumiy qiymati 20 768 000 so'mlik 16 par "Kogti" xarid qilingan bo'lib. Mas'ul xodimlar tomonidan ushbu tovar joyiga chiqib o'rganilganida №4632130.1.1 shartnoma texnik parametrlarida ko'rsatilgan "Kogti" mavjudligi aniqlanmagan.
- Buxoro lokomotiv deposi filiali hisobot davrida tuzilgan xo'jalik (xarid) shartnomalari ma'lumotlari ilovaga muvofiq emas, masalan kontragentlarning STIR raqami kiritilmagan. Shuningdek tuzilgan shartnomalarning lot raqami va shartnoma raqami talab etilgan ustunda ularning bittasigina ko'rsatilgan, tuzilgan xarid shartnomalari bo'yicha kontragentlarni tekshirish reestri belgilangan talab darajasidan ortiqcha to'ldirilgan. Xususan, elektron do'kon hamda boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion shaklida amalga oshirilgan xaridlar ham reestrga kiritilgan. Buxoro lokomotiv deposi filiali tomonidan tuzilgan xarid shartnomalari tanlanma usul orqali o'rganilganda "Buxoro lokomotiv deposi" filiali (TCH-6) hamda YATT "Abduvaliyeva Dilnoza Sultonmurodova" o'rtasida 100 dona "Profil metallicheskiy (Profil olovyanniy dlina 3 m, tolshina 4 mm)" tovarini xarid qilish bo'yicha shartnoma tuzilgan, "Buxoro lokomotiv deposi" filiali (TCH-6) hamda YATT "Xalikov Shavkat Kamalovich" o'rtasida 180 litr sovutuvchi suyuqlik (antifriz) xarid qilingan, Buxoro lokomotiv deposi" filiali (TCH-6) hamda "LED ENERGY PRODUCT" MCHJ o'rtasida 6 dona "Viklyuchatel avtomaticheskiy na napryajenie ne bolee 1 kV" tovarini xarid qilish bo'yicha shartnoma tuzilgan bo'lib, joyiga chiqib o'rganilganda shartnomada ko'rsatilgan tovar ishlab chiqaruvchisi nomi va olib kelingan tovar ishlab chiqaruvchi nomida farq borligi ma'lum bo'ldi. *(Hozigi kunda YATT "Xalikov Shavkat Kamalovich" va LED ENERGY PRODUCT" MCHJ bilan korxonada o'rtasida tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan mahsulot olib kelinib, nomlanishi boshqa bo'lgan mahsulot qaytarib berilib kamchilik bartaraf etildi.)*
- Samarqand signallashtirish va aloqa masofasi filiali hisobot davrida tuzilgan xo'jalik (xarid) shartnomalari ma'lumotlari ilovaga muvofiq emas, masalan kontragentlarning STIR raqami kiritilmagan. Shuningdek tuzilgan shartnomalarning

lot raqami va shartnoma raqami talab etilgan ustunda ularning bittasigina ko'rsatilgan, 2025 yil yakunlari bo'yicha amalga oshirilgan xaridlar bo'yicha mas'ul xodimlar tomonidan kontragentlarni tekshirish hisoboti (kontragentlarni o'rganish xulosalari) rasmiylashtirilmagan hamda xarid shartnomalari kontragentlar o'rganilgani to'g'risida asoslovchi hujjatlar yig'ilmagan. Samarqand signallashtirish va aloqa masofasi filiali tomonidan tuzilgan xarid shartnomalari tanlanma usul orqali o'rganilganda Samarqand signallashtirish va aloqa masofasi" filiali va "NARZULLO HIMOYA SERVIS" XK o'rtasida qo'riqlash-yong'in signalizatsiyasi vositalarini o'rnatish xizmati bo'yicha 2025 yil 03 fevraldagi №2947677-sonli, 2025 yil 07 apreldagi №3114947-sonli hamda 2025 yil 24 sentyabrdagi №3700173-sonli shartnomalar tuzilgan. Biroq mazkur shartnomalar o'rganilganda, shartnomalarda xizmat ko'rsatish belgilangan bo'lishiga qaramasdan, amalda xizmat ko'rsatish ishlari bajarilmaganligi hamda yong'indan xabar beruvchi mahsulotlar xarid qilinganligi ma'lum bo'ldi.

- Samarqand temir yo'l masofasi filiali tuzilgan xarid shartnomalari bo'yicha kontragentlarni tekshirish reestri to'ldirilmagan, 2025 yil yakunlari bo'yicha amalga oshirilgan xaridlar bo'yicha mas'ul xodimlar tomonidan kontragentlarni tekshirish hisoboti (kontragentlarni o'rganish xulosalari) rasmiylashtirilmagan hamda xarid shartnomalari kontragentlar o'rganilgani to'g'risida asoslovchi hujjatlar yig'ilmagan. Samarqand temir yo'l masofasi filiali tomonidan tuzilgan xarid shartnomalari tanlanma usul orqali o'rganilganda "Temiryo'linfratuzilma" AJ "Samarqand temir yo'l masofasi" filiali va "LOCHINALI" MCHJ o'rtasida kafel terish xizmati bo'yicha 2025 yil 05 yanvardagi №3966094.1.1-sonli hamda 2025 yil 22 yanvardagi №4037446.1.1-sonli shartnomalar tuzilgan. Biroq mazkur shartnomalar o'rganilganda, shartnomalarda xizmat ko'rsatish belgilangan bo'lishiga qaramasdan, amalda kafel mahsulotlari xarid qilinganligi ma'lum bo'ldi. "Samarqand temir yo'l masofasi" filiali va "IMSIN FAYZ" XK o'rtasida shahobcha temir yo'lini ta'mirlash ishlarini bajarish bo'yicha QQS bilan 100 800 000 so'mlik №PCH-8/20-sonli shartnoma tuzilgan hamda ushbu shartnoma bo'yicha PCH-8 tomonidan QQS bilan 100 800 000 so'mlik kalkulyasiya tasdiqlangan. Mazkur shartnoma ijrosi yuzasidan 2025 yil sentyabr oyida QQS bilan 30 240 000 so'mlik hamda 2025 yil noyabr oyida QQS bilan 50 000 278 so'm 72 tiyinlik ishlar bajarilganligi to'g'risida hisob-fakturalar rasmiylashtirilgan. Bajarilgan ishlarni tasdiqlovchi birlamchi hujjatlar o'rganilganda, 2025 yil uchun ishlarni qabul qilish dalolatnomasi PCH-8 va "IMSIN FAYZ" XK o'rtasida 34 240 000 so'mga imzolangan bo'lishiga qaramasdan, 2025 yil 12 sentyabrdagi №PCH-8/24-sonli hisob-faktura 30 240 000 so'mga rasmiylashtirilganligi ma'lum bo'ldi. Natijada 4 000 000 so'm mablag' buyurtmachidan undirilmay qolgan. (Hozirgi kun holatida mazkur summa undirilgan). Bundan tashqari, PCH-8 ning 27-bo'lim muhandisi F.F.Sattarov PCH-8 ning (hozirgi vaqtdagi) boshlig'i Rustamov Elyor Baratovichning qayniukasi ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu bilan, O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida" gi Qonuni 8-moddasi talablariga rioya qilinmagan. Bundan tashqari, PCH-8 tomonidan Sattarov Firuz Farxod o'g'lining arizasiga asosan 8,820 tonna ishlatishga yaroqsiz R-50 rusumli rels metallolomi 2025 yil 27 oktyabrdagi №115-sonli hisob-faktura orqali 17 188 416 so'mga realizatsiya qilingan.

Biroq PCH-8 tomonidan Jamiyat rahbariyati tasdiqlagan "Quyuv-mexanika zavodi" AJ hamda "O'zmetkombinat" AJga topshirilishi belgilangan qora metal parchalarini topshirish reja-jadvalida nazarda tutilgan hajmda metallolom topshirilmagan bo'lishiga qaramasdan, metallolom rejada ko'rsatilmagan jismoniy shaxsga realizasiya qilinganligi ma'lum bo'ldi.

- 17-son yo'l mashinalari stansiyasida hisobot davrida tuzilgan xo'jalik (xarid) shartnomalari ma'lumotlari ilovaga muvofiq emas, masalan kontragentlarning STIR raqami kiritilmagan, ushbu jadvalda 88 ta xarid shartnomasi tuzilganligi ko'rsatilgan hamda jadval tasdiqlangan aslida 2025 yil davomida tuzilgan xarid shartnomalari 266 ta ekanligi aniqlandi Shuningdek tuzilgan shartnomalarning tartib raqamlari to'g'ri yozilmagan yoki to'g'ri skaner qilinmagan lot raqami va shartnoma raqami talab etilgan ustunda ularning bittasigina ko'rsatilgan.

"Buxoro MTU" filiali tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra 2025 yilda ishga qabul qilingan xodimlar bilan tuzilgan shartnoma turlari o'rganilganida jami 41 nafar xodim bilan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma (FHS) tuzilganligi ma'lum bo'ldi. Mazkur shartnomalar Jamiyat boshqaruv raisi o'rinbosarining 2025 yil 17 apreldagi 35-sonli bayoni qarori asosida "Elektrlashtirilgan yuqori tezlikdagi Navoiy Buxoro temir yo'l liniyasi ikkinchi uzunligi 92,1 km bo'lgan yo'lining qurilishi" loyihasi doirasida "Buxoro MTU" filiali rahbariga berilgan Samarqand temir yo'l bekati binosining fasad qismini zamonaviy ko'rinishda ta'mirlash choralari ko'rish topshirig'iga asosan tuzilgan. "Buxoro MTU" filiali tomonidan 2025 yilda jami 6 ta loyiha bo'yicha tuzilgan nuqson dalolatnomalari ishlarni qabul qiluvchi yoki uring vakillari tomonidan imzolanmagani holda "Buxoro MTU" filiali loyiha-smeta guruhi tomonidan ishlab chiqilgan mahalliy resurs qaydnomalari va resurs smeta hisob-kitoblariga ko'ra "Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi" tegishli bo'linmalarining yig'ma ekspert xulosalari olingan. Ekspertiza natijalariga ko'ra mazkur loyiha-qurilish ishlari uchun jami 331 777 844 so'm ish haqi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, Jamiyat boshqaruv raisining 2024 yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston temir yo'llari" AJning 2024 yil 26 iyuldagi 484-N buyrug'iga qo'shimcha kiritish to'g'risida" gi 701-N son buyrug'ida keltirilgan loyiha hujjatlari ishlab chiqilishi talab etilmaydigan ish turlari qatorida Samarqand bekati hududidagi suv qudug'ini joriy ta'mirlash loyihasi uchun ekspert xulosasi olinmagan hamda loyiha-qurilish ishlari uchun smeta hisob-kitoblarida ish haqi 11 460 368 so'm etib ko'rsatilgan. Shunday qilib, Samarqand temir yo'l bekati binosining fasad qismini zamonaviy ko'rinishda ta'mirlash yuzasidan jami 7 ta loyiha uchun resurs smeta hisob-kitoblari bo'yicha jami 343 238 212 so'm ish haqi ko'rsatilgan. "Buxoro MTU" filiali tomonidan monitoring muddati tugagach, shartnomada ko'rsatilgan "bajaruvchi" tomonidan bajarilgan ish hajmini tasdiqlovchi erkin shakldagi dalolatnomalar taqdim etildi. Ulardagi ma'lumotlarga ko'ra har bir ishchi tomonidan bajarilgan ishlar hajmi loyiha doirasida barcha ishchilar uchun bir xil ko'rsatilgan. Shunga ko'ra, shartnomada bajargan ishiga mutanosib ravishda ish haqi to'lanishi belgilangani holda qurilish ishida qatnashgan ishchilarga loyihalar bo'yicha ish haqi teng miqdorda taqsimlangan.

1.2.3.4 indikator bo'yicha "Temiryo'linfratuzilma" AJ Buxoro-1 bekati yo'l xizmati ustaxonasi, PCH-Ziyovuddin, PCH-Qorlitog', SHCH-Buxoro korxonalari, Navoiy signallashtirish va aloqa masofasi filiali, Samarqand elektr ta'minoti masofasi filiali,

1.2.4.3 indikator jadvali bo'yicha Uchquduq temir yo'l masofasi filiali, Qorovulbozor stansiyasi, Buxoro-1 bekati yo'l xizmati ustaxonasi filiali hamda Buxoro signallashtirish va aloqa masofasi filiali, 1.2.4.4 indikator jadvali bo'yicha Uchquduq temir yo'l masofasi filiali, Buxoro signallashtirish va aloqa masofasi filiali, 4.1.1.1 indikator jadvali bo'yicha Buxoro mintaqaviy temir yo'l uzeli filialining tezkor bo'ysunuvidagi filiallarida, 4.2.3-indikator bo'yicha Samarqand temir yo'l masofasi filiali, Buxoro lokomotiv deposi, Qorlitog' temir yo'l masofasi filiali korxonalarida hisobotlarida kamchiliklar borligi ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagilarni hamda ishtirokchilar tomonidan takliflarni inobatga olib yig'ilish

#### **Q A R O R   Q I L A D I:**

1. Samarqand aloqa va ishorat masofasi filiali bosh hisobchisi A.Tashevga o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarmasdan korxonada ichki mehnat tartib qoidalariga rioya qilmaganligi uchun unga nisbatan intizomiy jazo chorasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qismi 1-bandiga asosan "hayfsan" qo'llanilsin.
2. Samarqand aloqa va ishorat masofasi filiali boshlig'ining 2026 yil 10 iyun kunidagi 5-sonli buyrug'iga asosan korxonada xaridlar bo'yicha ma'sul xodimi S.Baxriyevga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qismi 2-bandiga asosan o'rtacha oylik ish haqqining 10% miqdoridagi jarima qo'llanilganligi inobatga olinsin va muhokama bilan cheklanilsin.
3. Tinchlik Lokomotiv deposi filiali boshlig'ining 2026 yil 4 iyun kunidagi 06/75-sonli buyrug'iga asosan korxonada xaridlar bo'yicha ma'sul xodimi F.Tuyev va ta'minotchi Sh.Abdurasulovlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qismi 2-bandiga asosan o'rtacha oylik ish haqqining 10% miqdoridagi jarima qo'llanilganligi inobatga olinsin va muhokama bilan cheklanilsin.
4. Buxoro aloqa va ishorat masofasi boshlig'i S.Xudaykulovga xarid shartnomalarini tuzishda O'zbekiston Respublikasi Davlat xaridlari to'g'risidagi Qonun talablari asosida ish yuritilishini nazorat qilish va kelgusida shu kabi kamchiliklar aniqlanganda intizomiy jazo chorasi qo'llanilishi to'g'risida ogohlantirilsin.
5. Buxoro elektr ta'minoti masofasi filiali boshlig'ining 2026 yil 8 iyun kunidagi 20-sonli buyrug'iga asosan korxonada xaridlar bo'yicha ma'sul xodimi J.Boltayevga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qismi 2-bandiga asosan o'rtacha oylik ish haqqining 10% miqdoridagi jarima qo'llanilganligi inobatga olinsin va muhokama bilan cheklanilsin.
6. Samarqand temir yo'l masofasi filialining 2025 yildagi korxonada boshlig'i F.Hamidov va xaridlar bo'yicha ma'sul xodimi Sh.Mardiyevlar bilan hozirda tuzilgan mehnat shartnomalari bekor qilinganligi inobatga olinsin va muhokama bilan cheklanilsin.
7. Samarqand temir yo'l masofasi filiali bosh hisobchisi S.Djamgirovga o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarmasdan korxonada ichki mehnat tartib qoidalariga rioya qilmaganligi uchun unga nisbatan intizomiy jazo chorasi sifatida O'zbekiston

- Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qismi 2-bandiga asosan o'rtacha oylik ish haqqining 10% miqdoridagi jarima qo'llanilsin.
8. Samarqand temir yo'l masofasi filialining 2025 yil uchun ishlarni qabul qilish dalolatnomasi va "IMSIN FAYZ" XK o'rtasida imzolangan №PCH-8/24-sonli hisob-fakturada undirilmay qolgan 4 000 000 so'm mablag' hozirgi kun holatida undirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
  9. Samarqand temir yo'l masofasi filiali hamda "IMSIN FAYZ" XK o'rtasida shahobcha temir yo'lini ta'mirlash ishlarini bajarish yuzasidan 2026 yil 26 yanvar kuni PCH-8/2-sonli pudrat shartnomasi O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni 8-moddasi talablariga rioya qilinmaganligi sababli o'rnatilgan tartibda bekor qilinsin.
  10. Buxoro MTU filiali tezkor bo'ysinuvidagi temir yo'l masofasi filiallarida qo'shimcha xizmat ko'rsatish uchun shahobcha temir yo'llarini ta'mirlash to'g'risidagi shartnomalar o'rnatilgan tartibda tuzilsin.
  11. Buxoro mintaqaviy temir yo'l uzeli filiali qurilish va loyiha ishlari bo'limi boshlig'i B.Xudoyorovga qurilish va ta'mirlash ishlarini bajarish bo'yicha tuzilgan shartnomalarda bajarilgan ishga mutanosib ravishda ish haqqi to'lanishi uchun zarur hujjatlarni o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirish vazifasi yuklatilsin, shuningdek kelgusida bu kabi kamchiliklarga qayta yo'l qo'yganda unga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo'llanilishi to'g'risida ogohlantirilsin.
  12. Buxoro Lokomotiv deposi filiali boshlig'i o'z buyrug'i bilan korxonada xaridlar bo'yicha ma'sul xodimi D.Badriddinovga korxonada ichki mehnat tartib qoidalariga rioya qilmasdan o'ziga yuklatilgan vazifalarni to'liq bajarmaganligi uchun unga nisbatan intizomiy jazo chorasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qismi 1-bandiga asosan "hayfsan" qo'llanilsin.
  13. 17-son yo'l mashinalari stansiyasi filiali korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha javobgarlik ma'sul xodimi I.Aliyevdan olinib xodimlar bo'limi boshlig'i A.Teshayevga yuklatilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
  14. Buxoro-1 bekati yo'l xizmat ustaxonasi boshlig'ining 2026 yil 5 yanvar kunidagi 52-sonli buyrug'iga asosan korxonada korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha javobgarlik xodimlar bo'limi noziri Sh.Mardonovga yuklatilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
  15. Buxoro aloqa va ishorat masofasi filiali boshlig'ining 2026 yil 25 fevral kunidagi 87-sonli buyrug'iga asosan korxonada korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha javobgarlik xodimlar bo'yicha Muhandis G.Hamidovga yuklatilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
  16. Navoiy aloqa va ishorat masofasi filiali korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha javobgarlik ma'sul xodimi M.Raxmonovdan olinib xodimlar bo'yicha yetakchi muhandis J.G'aniyevga yuklatilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
  17. Samarqand, Buxoro, Uchquduq, Qorlitog va Ziyovuddin temir yo'l masofasi, Samarqand aloqa va ishorat masofasi, Samarqand va Buxoro elektr ta'minoti masofasi, Tinchlik va Buxoro Lokomotiv depolari korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha ma'sul xodimlari Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim qilinadigan indikator jadvallarini xato va kamchiliksiz taqdim qilish bo'yicha ogohlantirilsin, shuningdek barcha korxonada rahbarlariga mazkur

hisobotlarni o'z vaqtida, xato va kamchiliklarsiz taqdim qilinishini nazorat qilish bo'yicha javobgarlik yuklatilsin.

18. Buxoro mintaqaviy temir yo'l uzeli filiali marketing va xaridar bo'limi boshlig'i D.Nabiyevga barcha uzal tarkibidagi korxonalar xaridlar bo'yicha ma'sul xodimlari uchun xaridlar jarayonida talab etiladigan majburiyatlar ro'yxatini ishlab chiqib tarqatish hamda Buxoro MTU filialining tezkor bo'ysinuvida bo'lgan korxonalarida xaridlar jarayonini doimiy nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

19. Ushbu yig'ilish bayoni ijrosini nazorat qilishni Buxoro mintaqaviy temir yo'l uzeli filiali boshlig'ining birinchi o'rinbosari A.Y.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Yig'ilish bayonini yozib bordi:



N.R.Mardonov

Kelishildi:

Uzal boshlig'ining birinchi o'rinbosari:



MTUF:



MTU marketing:




Buxoro mintaqaviy temir yollari  
filiali boshligi o. b. S.S. Atvorovga

Soyiha soqirulish ishlarini nazorat  
qilish sektori boshligi B. J. Xudoyarov  
tomonidan

## Tushuntirish xati

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ va uning tarkibiy  
bōlinmalarining Korupsiyaga qarshi ichki nazorat  
tuzilmasi ma'sul xodimlari ishtirokida  
2026 yil 5-15 may kunlari o'tkazilgan monitoring  
tekshiruvda "Samarqand temir yol bekati va hududini  
joriy ta'mirlash" ishlarini bajarish uchun fuqarolik-  
huzur qiy tuzidagi shartnoma asosida qabul qilingan  
ishchilarga oylik ish haqqi va bajaragan ishlar  
dabolatnomalari bir xil kōrsatilganligi aniqlangan.  
Aslida esa har bir ishchi bajaragan ishiga kōra  
haq olishi va dabolatnoma tuzili kerakligi kōzda  
tutilgan ekan. Ushbu holat qayta takrorlanmaydi.

B. J. Xudoyarov 



"Temir yo'l infratuzulma" AJ  
Samarqand temir yo'l masofasi filiali

140102, Samarqand shaxri  
Rudakiy ko'chasi 25 uy  
Fax 24-948, tel 24-183 mob 99899-595-10-60

22.06.2026 y

**"Temiryo'linfratuzulma" AJ**  
**boshqaruv raisi**  
**S.A. Norqobilovga**

**Samarqand temir yo'l**  
**masofasi filiali boshlig'i**  
**E.B. Rustamovdan**

### Tushuntirish xati.

Yozaman ushbu tushuntirish xatini shu xaqdagi 2025 yil va 2026 yil 5 oy mabiynda korxonamizda koorupsiyaga karshi kurashish va manfaatlar toqnashuvi buyicha olib borilgan ishlar yuzasidan aniqlangan kamchiliklar buyicha tegishli xodimlarga tushuntirildi va oqibatlari natijasi haqida ogohlantirildi. Shu bilan birga 2025 yil 14 iyulda Samarqand temir yo'l masofasi hamda "IMSIN FAYZ" XK o'rtasida shaxobcha yo'llarini ta'mirlash buyicha PCh-8/20 – sonli shartnoma imzolangan. Ushbu shartnoma ijrosi buyicha 2025 yil sentyabr oyida bajarilgan ishlarni qabul qilish buyicha dalolatnomada 34 240 000 so'mlik ish bajarilganligini tomonlar tasdiqlangan ammo 2025 yil 12 sentyabda PCh-8/84 – sonli junatilgan xisob varak fakturada 30 240 000 so'm qabul qilingan. Arifmetik xatolik natijasida 4 000 000 so'mga kam xisob varak faktura taqdim etilgan. Ushbu xatolikni to'g'rilash uchun 2026 yil 14 mayda qo'shimcha xisob varaq faktura "IMSIN FAYZ" XKga junatildi va ular tomonidan qabul qilindi. 26 may 2026 yilda 14 – sonli to'lov topshiriqnomasi asosida qarzdorlik to'liq to'landi. 2026 yil 26 yanvarda Samarqand temir yo'l masofasi hamda "IMSIN FAYZ" XK o'rtasida shaxobcha yo'llarini ta'mirlash buyicha PCh-8/2 – sonli imzolangan shartnoma bekor qilindi. Ushbu holatlar boshqa qaytarilmasligi uchun nazoratni kuchaytiraman va boshqa takrorlanmaydi.

Samarqand temir yo'l  
masofasi boshligi

Rustamov E.B.



*"Temir yo'l infratuzulma" AJ*  
Samarqand temir yo'l masofasi filiali

140102, Samarqand shaxri  
Rudakiy ko'chasi 25 uy  
Fax 24-948, tel 24-183 mob 99899-595-10-60

22.06.2026 y

**"Buxoro mintaqaviy temir yo'l  
uzeli" filiali boshlig'i**  
**S.S.Asrorovga**

**Samarqand temir yo'l  
masofasi filiali bosh xisobchisi**  
**S.E. Djamgirovdan**

### Tushuntirish xati.

Yozaman ushbu tushuntirish xatini shu xaqdagi 2025 yil 14 iyulda Samarqand temir yo'l masofasi hamda "IMSIN FAYZ" XK o'rtasida shaxobcha yo'llarini ta'mirlash buyicha qiymati QQS bilan birga 100 800 000 so'mlik PCh-8/20 – sonli shartnoma imzolangan. Ushbu shartnoma ijrosi buyicha Samarqand temir yo'l masofasi xodimlari tomonidan 2025 yil sentyabr va noyabr oylarida shaxobcha yo'llarini ta'mirlash ishlari bajarilgan va birlamchi xujjatlar rasmiylashtirilgan. 2025 yil sentyabr oyida bajarilgan ishlarni qabul qilish buyicha dalolatnomada 34 240 000 so'mlik ish bajarilganligini tomonlar tasdiqlangan ammo 2025 yil 12 sentyabda PCH-8/84 – sonli junatilgan xisob varak fakturada 30 240 000 so'm qabul qilingan. Arifmetik xatolik natijasida 4 000 000 so'mga kam xisob varak faktura taqdim etilgan. Ushbu xatolikni to'g'rilash uchun 2026 yil 14 mayda qo'shimcha xisob varaq faktura "IMSIN FAYZ" XKga junatildi va ular tomonidan qabul qilindi. 26 may 2026 yilda 14 – sonli to'lov topshiriqnomasi asosida qarzdorlik to'liq to'landi. Ushbu yuqoridagi kamchiliklar bartaraf qilindi va tegishli xodimlarga tushuntirildi boshq ushbu xolat qaytarilmaydi.

Samarqand temir yo'l  
masofasi bosh xisobchi

Djamgirov S.E

**“Темирйўлинфратузилма”  
АЖ бошқарув раиси  
С.А. Норқобиловга**

**Бухоро сигналлаштириш ва  
алоқа масофаси бошлиғи  
С.Р. Худайкуловдан**

### **Тушунтириш Хати**

Бухоро сигналлаштириш ва алоқа масофаси филиали Сизга шуни маълум қиладики масофада 2025-йил якунлари бўйича коррупцияга қарши кураш доирасида ўтказилган текширув давомида 2025-йилда тузилган хўжалик (харид) шартномалари ўрганилган. Жумладан 2025-йилда аукцион харид тури орқали турли даврда №5315022.1.1, №5304750.1.1 ҳамда №5298972.1.1 сонли шартномалар “PRESTIJ GRAND PLYUS” МСНЖ билан тузилган. Махсус ахборот портали орқали ушбу шартномалар ўрганилганда тендер савдоларида “PRESTIJ GRAND PLYUS” МСНЖ билан биргаликда “NURAFSHON FAMILU” МЧЖ қатнашганлиги, уларнинг таъсисчиси ва директори айти бир шахс эканлиги аниқланган. Шунингдек бу ҳолат №4381511.1.1 – сонли шартнома бўйича ҳам “BUXORO IMKONIYAT PLYUS” МСНЖ ва “PRESTIJ GRAND PLYUS” МСНЖ лар ўртасида ҳам такрорланган.

Ушбу йўл қўйилган вазиятда шартнома тузиш жараёнида масофа томонидан тендерда қатнашаётган агент ва контрагентларни ўзаро аффилиланганлигини аниқлашни техник ва дастурий имконияти бўлмаган.

Жумладан ҳолат юзасидан “НАҲОТ ВІРЈА” АЖ га мурожаат киритилганда, унинг 01.06.2026-йилдаги №01/20-1772 сонли жавоб хатида давлат харидлари электрон тизимида аффилиланганлик аломатлари, манфаатлар тўқнашувини аниқлаш бўйича давлат органлари билан интеграция 2026-йилдан йўлга қўйилганлиги маълум қилинди.

Шунга кўра ҳозирда харид шартномалари тузишда агент ва контрагентлар ўртасида аффилиланганлик ҳолати текшируви олиб борилмоқда. Келгусида бу каби ҳолатларга йўл қўймаслик бўйича барча чоралар кўрилиб борилишини билдираман.

ШЧ-7:



С.Р. Худайкулов